REVMATOID ARTRIT BILAN OG'RIGAN BEMORLARDA METABOLIK SINDROM KOMPONENTLARINING UCHRASH CHASTOTASI XUSUSIYATLARI

Umirzakova L.K., Ismailov K.Y.
Urganch davlat tibbiyot instituti, Urganch, O'zbekiston

Mavzuning dolzarbligi. Revmatoid artrit (RA) bo'g'imlarning eroziv-destruktiv shikastlanishi va tizimli yallig'lanish jarayonlari bilan kechuvchi og'ir autoimmun kasallik hisoblanadi. Hozirgi kunda RA bilan og'rigan bemorlarda yurak-qon tomir xavfini oshiruvchi komorbid holatlar, xususan, metabolik sindrom (MS) muammosi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Surunkali tizimli yallig'lanish insulinorezistentlik, dislipidemiya, arterial gipertenziya va abdominal semirishning rivojlanishiga kuchli turtki beradi. Shu bois, revmatoid artritda MS komponentlarining uchrash chastotasini o'rganish va ularning o'zaro bog'liqligini baholash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega vazifalardan biridir.

Tadqiqot maqsadi. Revmatoid artrit bilan og'rigan bemorlarda metabolik sindrom komponentlarining uchrash chastotasi va klinik-metabolik xususiyatlarini baholash.

Material va usullar. Tadqiqotga Amerika Revmatologiya Kolleji va Yevropa Revmatologiya Assotsiatsiyalari Alyansi (ACR/EULAR) mezonlari asosida RA tashxisi qo'yilgan 60 nafar bemor jalb qilindi.

Ularning 80% ni ayollar, 20% ni erkaklar tashkil etdi. Bemorlarning o'rtacha yoshi 42 yoshni, kasallik davomiyligi esa 12 yilni tashkil qildi. Faol infeksiya, onkologik kasallik va og'ir buyrak yetishmovchiligi kabi holatlar tadqiqotga kiritilmadi.

Tadqiqotga jalb qilingan hamma bemorlarga umumiy klinik tekshiruvlar, tana vazni indeksi (TVI) va bel aylanasini o'lchash, arterial qon bosimini qayd etish, shuningdek, lipidlar spektri (umumiy xolesterin, TG, LPVP, LPNP) va och qoringa qondagi glyukoza miqdorini aniqlash kabi tekshiruvlar o'tkazildi. Yallig'lanish faolligi S-reaktiv oqsil (SRO) va DAS28 indeksi (revmatoid artrit kasalligining faolligini baholash uchun eng ko'p qo'llaniladigan xalqaro standart indeksi) asosida baholandi.

Natijalar va muhokama. O'tkazilgan tekshiruvlar RA bilan og'rigan bemorlarda metabolik sindrom komponentlari yuqori chastotada uchrashini ko'rsatdi. Xususan, MS belgilari tekshirilgan

bemorlarning 76% da aniqlandi. Metabolik buzilishlar strukturasi quyidagicha taqsimlandi: abdominal semirish 46,7 %, arterial gipertenziya 43,3 %, dislipidemiya 40,0 %, glyukoza almashinuvining buzilishi 23,3 % holatda qayd etildi. Demak, abdominal semirish, arterial gipertenziya va dislipidemiya o‘xshash ya’niy bir-biriga yaqin chastotada uchrasa, glyukoza almashinuvining buzilishi esa ularga nisbatan kamroq holatlarda qayd etildi.

Shuningdek, MS komponentlari uchrash chastotasining kasallik davomiyligi va tizimli yallig’lanish ko’rsatkichlari (DAS28, SRO) yuqori bo’lgan guruhlarda sezilarli darajada ortishi kuzatildi.

Xulosalar. Revmatoid artrit bilan og’rigan bemorlarda metabolik sindrom komponentlari (asosan abdominal semirish va arterial gipertenziya) yuqori chastotada uchraydi. Bu esa revmatologlar amaliyotida bemorlarni erta bosqichda metabolik skriningdan o’tkazish, yurak-qon tomir xavfini oldini olish va davolash usullarini takomillashtirish zarurligini ko’rsatadi.